

AMUDARYO TUMANIDA BAHOR MAVSUMIDA MAHSULDOR TUT NAVLARI BILAN BOQILGAN IPAK QURTI PILLALARINING TEXNOLOGIK KO‘RSATGICHLARI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1045>

Jumanazarov Timur Tanirbergenovich

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar Instituti “Ipakchilik” kafedrası (PhD)
assistenti

Mambetova Ramuza Paraxatovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar Instituti “Ipakchilik” kafedrası assistenti

Kurbanbaeva Ziywar Kushkinbaevna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar Instituti “Ipakchilik” kafedrası assistenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, mahsuldor tut navlari bilan ipak qurti duragaylari parvarishlanib, olingan pillalarning texnologik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Olingan natijalardan shuni ko‘rish mumkinki varianlarning texnologik ko‘rsatkichlari ichida tolaning umumiy uzunligi bo‘yicha eng yuqori natija oltinvodiy duragayida kuzatildi (1287,3 m). Metrik nomeri bo‘yicha esa eng yaxshi natija SANISH-33 tut nvi bilan parvarishlangan Xorij duragayida kuzatildi (3886,0 m/g) Olib borilgan tajribalarda ijobiy natijalar olindi va mahsuldor tut navlari bilan boqilgan tut ipak qurti duragaylarining pillasining texnologik ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lishi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: . *Texnologik, duragay, mahsuldor, metrik nomer, ipakchanlik.*

KIRISH

Ipak qurti pillalarining texnologik ko‘rsatkichlari eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu esa zot va duragaylarning qanchalik samaradorligi hamda raqobatbardoshli ekanligini ko‘rsatadi. Pillalardan xom ipak chiqishi, quruq pilla vazni, ipakchanlik, tolalarning umumiy uzunligi va metrik nomeri kabi ko‘rsatkichlar pillalarning asosiy texnologik ko‘rsatkichlariga kiradi. So‘nggi yillarda ipak ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha olimlarning izlanishlariga nazar soladigan bo‘lsak, sifatli pilla va ipak olish uchun ipak qurtini boqishda yuqori qurt boqish agrotexnikasidan va sifatli ozuqadan foydalanish zarurligini ko‘rsatmoqda. Ushbu bo‘limda biz xo‘jalik qimmatli belgilari yuqori bo‘lgan tut navlari bargi bilan parvarishlangan ipak qurtlari o‘ragan pillalarining texnologik ko‘rsatkichlarini o‘rgandik. Texnologik tahlillar har yili bahor mavsumida parvarishlanib olingan quruq pillalarni chuvish orqali amalga oshirildi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda pillachilik sohasi bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinayapti. Pilla etishtirishda eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu, ipak qurtining biologik, pilla mahsuldorlik, pilla ipining texnologik ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Olimlarimiz Liniya 27 va Liniya 28 seleksion tizimlari hamda ular ishtirokida olingan yuqori getrozisli “Musaffo tola 1” va “Musaffo tola 2” sanoatbop duragaylarini birinchi sutkada tuxum tashlash xususiyati pillaning texnologik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan aniqlashganlar. Tizimlar ichida xom ipak chiqishi bo‘yicha juda yuqori ko‘rsatkich Liniya 27 va Liniya 28 tizimlarida kuzatishgan (47,9 % va 47,7 %). Eng uzun ipak tolasi Liniya 27 tizimida 1428 m va Liniya 28 tizimida esa 1314 m bo‘lgan. Tolaning metrik nomeri Liniya 28 tizimida ingichkaroq – 3626 m/g ni hamda Liniya 27 tizimida 3577 m/g darajasida bo‘lganini aniqlashgan. Xom ipak chiqishi bo‘yicha Musaffo tola 1 va Musaffo tola 2 duragaylari yuqori (47,6 % va 48,8 %) bo‘lganini aniqlashgan. [3]

Tut ipak qurtining jinsi nishonlangan tizimlari ishtirokida olingan yangi duragay kombinatsiyalarining asosiy texnologik ko'rsatkichlarini tahlil natijalari o'rganilib, quruq pilladan xom ipak chiqishi ko'rsatkichlari Liniya 100 x Liniya 11 mech va Liniya 102 x Liniya 5 mech duragaylarida bu ko'rsatkich 47,19-47,37 % ni tashkil etgan. Qiyoslovchi O'zbekiston 5 va Xorij duragayida 44,71-44,83 % ga teng bo'lganini aniqlashgan. Tolaning uzluksiz chuvalish uzunligi bo'yicha Liniya 5 mech x Liniya 102 (1592 m), Liniya 100 x Liniya 11 mech (1575 m) va Liniya 101 x Liniya 32 mech (1342 m) duragay kombinatsiyalari mustahkam ipak tolasiga ega ekanligi isbotlangan. [2]

Olimlarimiz mamlakatimizning ayrim mintaqalarida xorijiy ipak qurtlarini boqib ularning biologik ko'rsatkichlari va pilla mahsuldorligi ko'rsatkichlarini taqqoslab ko'rganlar. Shimoliy hududlarda ya'ni Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a hamda Xanqa tumanlarida parvarishlangan qurtlarning hayotchanligi boshqa viloyatlarga solishtirganda past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan (80,7-89,0 %). Urug'larning jonlanib chiqishi bo'yicha ko'rsatkichlar 93,2-94,0 % qayd etilgan. Pilla hosildorligi 52,3-57,0 kg ni tashkil etgan va bu boshqa mintaqalarga qaraganda ancha past deb xulosa qilganlar. [1]

TADQIQOT MATERIALI VA USLUBIYATI

Tadqiqot materiali sifatida tutning mahsuldor Jarariq-5 va SANISH-33 navlari va ularga qiyoslovchi Xasak tut barglari bilan oddiy qurt boqish usulidan foydalanilib, ipak qurtining Ipakchi I x Ipakchi II, Ipakchi II x Ipakchi I, Oltinvodiy 1, Xorij duragaylari parvarishlandi. Tajribalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani O'zbekiston (OFY) "Bazorboy" fermer xo'jaligida olib borildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologik tahlillar har yili bahor mavsumida parvarishlanib olingan quruq pillalarni chuvish orqali amalga oshirildi. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatib turibdiki, tajriba variantlarida quruq pilla vazni, ipakchanlik, quruq pilladan xom ipak chiqish foizlari va eng asosiysi metrik nomer ko'rsatkichlari har yili olib borilgan tajribalarimizda nazorat variantiga nisbatan sezilarli darajada ortganligi kuzatildi quydagi rasmda ma'lumotlar keltirilgan.


1- rasmdagi ilmiy malumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, mahsuldor tut navi barglari bilan boqilib, olingan quruq pillalarning tolasini umumiy uzunligiga to'xtaladigan bo'lsak Ipakchi 1 x Ipakchi 2 va Ipakchi 2 x Ipakchi 1 duragaylarda o'rtacha uch yilligi 1132,3- 1212,3 m ni, Oltin vodiy 1 duragayida 1287,3 m, hamda xorij duragayida 1010,0 m tola chiqqanligi aniqlandi. Bu navlar tutning mahsuldor SANISH-33 navi bilan parvarishlandi. Tajribamizda Jarariq-5 hamda SANISH-33 tut naviga nazorat variant sifatida tutning Xasak navidan foydalanildi. 1-rasmda ko'rinib turibdiki Xasak tut navvi bilan parvarishlangan Ipakchi 2 x Ipakchi 1 duragayi 869,0 m ni tashkil qilib eng kam ko'rsatkichga ega bo'lingan. Tajribamizdagi pilla tolasining umumiy uzunligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jarariq-5 tut navi bilan parvarishlangan Oltinvodiy 1 duragayida kuzatildi 1287,3 m.

Qoraqalpog'iston sharoitida mahsuldor tut navlari bilan boqilgan tut ipak qurti pillalarining texnologik ko'rsatkichlari

Tut ipak qurtini pillalarini texnologik ko'rsatkichlariga navdor va Xasak tut navlari barglarining ta'sirini o'rganish ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega.


Yigirilgan tolalarning ingichkaligini ko'rsatadigan duragaylarning metrik nomerini oladigan bo'lsak, bunda xorij duragayi yuqori 3886,0 m/g pog'onaga ko'tarilgani ko'rinadi. Pillalari yirik bo'lgan Ipakchi 2 x Ipakchi 1 duragayida 3116,0 m/g bilan pastki o'rindan joy olgan. Ipakchi 1 x

Ipakchi 2 hamda Oltin vodiy 1 duragaylarda 3390,3-3142,3 m/g bo'lib, o'rta darajalarni saqlab qolgan.



1-rasm. Quruq pilla tolasining umumiy uzunligi.

Hozirgi kunda jahon bozorida ingichka ipak tolaga bo'lgan talab ortib bormoqda. Navdor tut barglari bilan parvarishlangan duragaylarni quruq pillalarini (m/g) o'rganib chiqdik. Tolaning metrik nomeri bo'yicha eng uzun xorij duragayida 3886,0 m/g bo'lgan bo'lsa, Ipakchi 1 x Ipakchi 2 da 3419,0 m/g, Ipakchi 2 x Ipakchi 1 va Oltin vodiy 1 duragaylarida 3224,0 m/g, 3209,7 m/g gacha olingani ko'rildi. Nazorat variantidagi pillalarning metrik nomeriga (m/g) to'xtalib o'tsak.



2-rasm. Quruq pilla tolasining metrik nomeri.

Xorij duragayida 3302,7 m/g bilan yetakchi o'rindaligi ma'lum bo'ldi. Ipakchi 2 x Ipakchi 1 duragayida 2958,0 m/g bo'yicha keyingi o'rinni egalladi. Hozirgi kunda Respublikamizda parvarishlashda keng tarqalgan Ipakchi 1 x Ipakchi 2 va Oltin vodiy 1 duragaylarida 2987,7-3128,3 m/g bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat variantidagi tut barglari bilan parvarishlangan ipak qurti pillalarining texnologik ko'rsatkichlarini taqqoslaydigan bo'lsak navdor (tajriba) tut navlari bilan parvarishlangan duragaylarning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat variantidan ustunligini yaqqol namoyon etdi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar asosida mahsuldor tut navlari bilan boqilgan tut ipak qurti duragaylari pillasining texnologik ko‘rsatkichlari asosiy qismi bo‘lgan pillalar chuvatilishi, uzluksiz chuvatilish uzunligi, tolaning umumiy uzunligi va tolaning metrik nomeri kabi ko‘rsatkichlariga ijobiy tasir ko‘rsatdi. Tajriba va nazorat variantidagi tut barglari bilan parvarishlangan ipak qurti pillalarining texnologik ko‘rsatkichlarini taqqoslaydigan bo‘lsak navdor (tajriba) tut navlari bilan parvarishlangan duragaylarning barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat variantidan ustunligini yaqqol namoyon etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Batirova A., Umarov A. Appearance of biological and productivity indicators of foreign breeds and hybrids of *Bombyx mori* L. propagated in seed enterprises in different conditions. // E3S Web of Conferences 371, 01026 (2023). Pp-1-9. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101026>.
2. Nasirillaev B.U., Jumaniyozov M.Sh., Achilov Sh.I. Tut ipak qurti jinsi nishonlangan yangi duragay kombinatsiyalarining texnologik ko‘rsatkichlari. // To‘qimachilik iplarini chuqur qayta ishlashning innovatsion yechimlari mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman materiallar to‘plami. – Toshkent, 2019-oktyabr. 92-94-b.
3. Umarov Sh.R., Nasirillaev B.U., Xudjamatov S.X. Tut ipak qurtining istiqbolli tizimlari va ular ishtirokidagi fl duragaylarini texnologik xususiyatlari. // To‘qimachilik iplarini chuqur qayta ishlashning innovatsion yechimlari mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman materiallar to‘plami. – Toshkent, 2019-oktyabr. 143-146-b.